


AVTOMOBIL DVIGATELINI SOVITISH TZIMINI OPTIMAL ISH FOLIYATINI TAXLILI



Toshloq tumani 2-son politexnikumi “Maxsus fanlar” kafedrasи o’qtuvchilari.

Katta o’qituvchi. **Mamajonov Abdumalik Hakimovich.**

Yetakchi o’qituvchi. **Akbaraliyev Avazbek Ahmadjon o’g’li.**

Yusufjonov Asilbek G’ayratjon o’g’li.

Ismanov Jasurbek Umidjon o’g’li.

Annotation: Ushbu maqolada avtomobil dvigatelini sovitish tizimini taxlili ya’ni sovitish tizmini radiatorini hisobi, termostatni ishlash uslubi va sovitish tizmining hisobiy unumdorligini aniqlash metodikasi haqida ko’rsatmalar berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Sovitish tizimini turlari, tuzilishi, ishlash jarayoni, thermostat va uning turlari, ochiq va yopiq sovitish tizmi, radiator va uning turlari, suv nasosi.

Abstract: This article provides instructions on the analysis of the cooling system of the car engine, that is, the calculation of the radiator of the cooling system, the method of operation of the thermostat, and the method of determining the calculation efficiency of the cooling system.

Key words: Types of cooling system, structure, operation process, thermostat and its types, open and closed cooling system, radiator and its types, water pump.

Аннотация: В данной статье приведены инструкции по анализу системы охлаждения двигателя автомобиля, то есть расчету радиатора системы охлаждения, методу работы термостата, а также методу определения расчетной эффективности охлаждения. система.

Ключевые слова: Типы систем охлаждения, устройство, процесс работы, термостат и его типы, открытая и закрытая система охлаждения, радиатор и его типы, водяной насос.

Sovitish tizimining vazifasi. Sovitish tarmog'i dvigatelning qizigan detallaridan issiqlikni majburan tashqimuhitga tarqatib, uning kerakli issiqlik maromida ishlashini ta'minlaydi. Dvigatelda ish siklning o'rtacha harorati 1070...1200 K (800...1000° C). Bunday haroratda krivoship shatunli va GTM ning detallari qizib ketadi, ishqalanuvchi yuzalar orasida moy kuyib, ishqalanish xaddan tashqari oshib ketadi. Natijada porshen issiqlik ta'sirida kengayib, silindr ichida tiqilib qoladi, podshipniklar esaerib ketishi mumkin. Shu sababli dvigatelning qizigan detallaridan issiqliknuzluksiz ravishda tashqi muhitga tarqatib turish lozim. Lekin dvigatel xaddantashqari sovitib yuborilsa ham, issiqlik energiyasi bekorga sarf bo'ladi, moy qo'yuqlashib, ishqalanishga sarflanadigan quvvat oshadi. Undan tashqari, yonuvchi aralashma qisman tomchiga aylanib, silindrlar devoridagi moyni yuvibtushiradi, natijada silindr-porshen guruhiya kiruvchi detallarning yeyilish ortadi. Demak, dvigatelning juda qizib ketishi yoki xaddan tashqari sovib qolishiuning foydali quvvatini kamaytirib, tejamkorligini yomonlashtiradi. Sovitishtarmog'i esa dvigatelning ishlashi uchun qulay bo'lgan issiqlik marominibelgilangan holda saqlab turadi.

Suyuqlik bilan sovitish tizimi, suyuqlikning harakatlanish usuli bo'yicha termosifon, aralash va majburiy tarmoqlar mavjud.

Termosifon usulida suyuqlikning harakati issiq va sovuq suyuqliklar zichligining farqi tufayli tabiiy ravishda o'tadi.

Aralash usulda esa radiatordagi sovitilgan suv nasos yordamida silindr larningyuqori qismiga yuboriladi, pastki qismiga esa suv o'z tabiiy oqimi bilan oqib tushadi.

Majburiy usulda tarmoqdagi suyuqlik nasos yordamida uzluksiz harakat qiladi.

Dvigatellar sovitish tizimini hisoblashda sovutuvchi suyuqlik antifrizning rolikatta. Uning issiqlik almashinish darajasi va issiqlik qabul qilgichlardan issiqlikiytish ko`rsatkichlari asosida 1-jadval

tuzilgan va bu keying hisoblarimizda ishlatsiz. Agar radiatorda suv o`rniga antifriz ishlatsa issiqlik yutish 8-12 % gapasayadi.

Jadval 1. Sovituvchi suyuqliklar fizik hususiyatlari.

Modda	Xarorat, °C		Zichlik ρ, kg/m3	Issiqlik yutishi, kJ/(kg·K)
	Muzlash	Qaynash		
Suv	0	100	1000	4,2
Havo	- 213	- 193	0,95...1,2	1,0
Antifriz	- 65 ...-45	102...117	1100...1112	2,5...3,8

Tizimning hisobiy unum dorligi aniqlash metodikasi

Sovutish tizimini hisoblashda boshlang'ich kattalik sifatida dvigateldan tashqi muhitga chiqarib yuoriladigan issiqlik miqdori hisoblanadi. Hisoblar dvtgatelning nominal quvvatidagi N_{en} (kVt) rejimlar uchun olib boriladi.

Olib borilgan sinovlar natijasida olingan xar xil turdag'i dvigatellar uchun issiqlikning solishtirma miqdori q_{oxl} quyidagi qiymatlarga teng:

benzin dvigatellarda 2840...5700 kDj/(kVt·s);

dizellarda 2270...2900 kDj/(kVt·s).

Agar moylar sovutish tizimi ishchi elementlarida sovutilsa, q_{oxl} qiymatni 2...4,5% ga oshirish lozim.

$$Q_j = \frac{1}{3,6} q_{oxl} N_{en}, \text{ Dj/s}$$

1 sekund ichida sovutish tizimida sovutuvchi suyuqlik sirkulyatsiyasi uchun sarf quyidagicha aniqlanadi:

$$V_j = \frac{Q_j}{C_j \cdot \rho_j \cdot \Delta T_j}, \text{ m}^3/\text{s}$$

Bu yerda Q_j – Sovutuvchi suyuqlikning solishtirma izobarik issiqlik sig'imi, $D_j/(kg \cdot K)$; 1 – jadvalda keltirilgan; ΔT_j – tizimga kirish va chiqishdagi xaroratning farqi (radiatorga kirish va chiqish); yopiq sirkulyatsiyali tizimlar uchun

6...15 K teng qilib olinadi; ρ_j – suyuqlik zichligi, kg/m^3 ; 1-jadvaldagи qiymatlarga mos olinadi.

Sovutish tizimning radiatorlari.

Shamol ta'sirida sovitishga mo'ljallangan radiatorlar konstruktsiyaga mos ravishda asosiy suyuqlik bilan sovituvchi radiator bilan birga yoyoki avtonom holda o'rnatilishi mumkin. Ko'p xollarda shamol yo'naliishiga mos purkab sovitivchi radiatorlar suv va moy radiatorlariningg oldida o'rnatilib, asosiy ventilyator xavo oqimi bilan purkalishga qulay sharoit yaratiladi. Bunday sxemayuqori gidravlik qarshilikni yengish, tizimni soddalashtirish vaqulaylik yaratishuchun atayin mo'ljallangandir va misol uchun Kobalt avtomobilning avtomatik uzatmalar qutili variantlarida ko'rishimiz mumkin.

Radiator hisobi.

Odatda uning issiqlik almashinuvchi F_p yuzasini aniqlashbilan yakunlanadi.

Birinchi bo'lib vaqt mobaynida dvigatelda sovitish uchun hosil bo'lgan issiqlik miqdori qiymati aniqlanadi va yuqoridagi formulaga bir qator o'zgartirishlar kiritiladi.

Radiator issiqlik almashinuvchi yuzasi quyidagicha hisoblanadi:

$$F_p = \frac{Q_j}{k_p \cdot \Delta T_{jl}}, \quad m^2$$

Bu yerda k_p – radiatording issiqlik almashinish yuzasi orqali uzatiladigan issiqlik koeffitsienti (suyuqlikdan havoga); benzin dvigatellar uchun $k_p=140...180$ $Vt/(m^2 \cdot 0S)$;

dizellar uchun $k_p=80...100$ $Vt/(m^2 \cdot 0S)$;

$DT_{j.v} = T_{jsr.} - T_{v sr.}$ – radiator orqali o'tayotgan sovituvchi suyuqlik va havoning o'rtacha xaroratlari farqi; $T_{j sr} = T_{v jx} - 0,5 \cdot DT_j = 86...91^0S$;

DT_j – radiatorda suyuqlikni ko'tarilish xarorati ($7...9^0S$);

T_j – suyuqlikni radiatordan chiqishdagi xarorati $90...95^0S$;

$T_{v sr} = 0,5 \cdot (T_{v vx} + T_{v vyx})$ – radiator orqali o'tayotgan havoni o'rtacha xarorati;

$T_v = T_0 + DTv.vx$ – radiatorga kirayotgan havoni xarorati; suv radiatoriga kirishdagi atmosfera havosini xarorati T_0 radiator jalyuzalari va moy radiatoridan o'tishda isishi $DTv.vx = 3\dots5^0S$; agar moy radiatori bo'lmasa,

$T_{vx} = T_0$ deb qabul qilish mumkin; atrof muxit xarorati $T_0 = 20^0S$ radiatorga kirishdagi havo xarorati $T_v = 23\dots25^0S$ ga teng bo'ladi; $T_v = T_{v,vx} + 0,5 \cdot DT$ - suv radiatoridan chiqishdagi xarorat; $DTv.vyx = 20\dots30^0S$ – suyuqlik radiatorining panjarasida havoning isishi; atrof-muhit xarorati $T_0 = 20^0S$ da radiatordan chiqishdagi havoning xarorati

$T_{v,yx} = 33\dots40^0S$ ga teng bo'ladi.

Sovutish tizimi sirkulyatsiya nasoslari.

Juda ko'p avtomobillarda suyuqliknini aylanishini ta'minlash uchun markazdanqochma suv nasoslari qo'llaniladi.

Nasoslari vallari dvigatel tirsakli vali bilan ponasimon kamarlar yordamida bog'lanib ishga tushiriladi. Ba'zida ushbu valga sovutish tizimi ventilyatori xam o'rnatiladi. Ko'pincha nasosning yuritmasi ventilyatordan alohida qilib bajariladi. Suyuqliknini aylanishini ta'minlovchi nasoslar avtomobil dvigatellari sovutishtizimida suyuqliknini $0,06\dots0,12 MPa$ bosimdagisi oqimini ta'minlashi shart.

Sirkulyatsiya nasosi hisobini uning asosiy geometrik parametrlari va iste'mol qiladigan quvvatini aniqlash uchun olib boriladi.

Nasosning unumдорligi hisobi nasosda suyuqliknini korpus va parrak orasida siquvchi yuza va so'rvuchi yuza orasidan hn ($hn = 0,8\dots0,9$) sizib o'tish koeffitsientini e'tiborga olib bajariladi.

$$V_{jr} = \frac{V_j}{h_n} \text{ yoki } V_{jr} = \frac{Q_j}{\mu_j \cdot C_j \cdot \rho_j \cdot \Delta T_j}, \quad \left(\frac{m^3}{s} \right) (2 - a)$$

Bu yerda μ_j – nasosning uzatish koeffitsienti; $\mu_j = 0,8\dots0,9$. Nasosning kirish teshigi suyuqlikning hisobiy miqdori yetkaza olishini ta'minlashi shart. Bu quyidagi shart bajarilganda ta'minlanadi:

$$V_{jr} / s1 = \pi \cdot (r_1 - r_2), \text{ Bu yerda } s1 \text{ – nasosga kirishdagi suyuqlik tezligi, m/s; } s1 = 1\dots2$$

m/s; r_1 va r_0 – mos ravishda parrakning kirish teshigi radiusi va parrak gupchagi radiuslari, m; parrak gupchagi radiusi nasos vali diametri yarmiga teng qilib olinadi va taxminan $r_0 = 0,01 \dots 0,015$ m teng qilib olinadi.

Parrakning kirish teshigi radiusi yuqoridagi tenglama yordamida aniqlanadi vaquyidagicha o'zgartiriladi:

$$r_1 = \sqrt{\frac{V_{jr}}{\pi \cdot c_1} + r_0^2}$$

Parrakning chiqishdagi radiusi r_2 quyidagicha:

$r_2 = kr \cdot r_1$, m; bu yerda $kr = r_2 / r_1$ – nasosga kirish va chiqishdagi parrak radiuslari nisbati bu qiymat taxminan $kr = 1,5$ qilib olish mumkin.

Sovitish tizimi ventilyatori.

Ventilyatorning o'lchamlari va unumdarligi radiatordagi suyuqlikni keraklidarajada sovitish uchun yetarli bo'lishi kerak. Dvigateli tezda qizdirish uchun va energiyani tejash uchun ventilyatorlar yuritmasi unumdarligi avtomotik sozlanuvchi yoki sovuq dvigatelda ishlamasdan turadigan qilib tayyorlanadi. Buning uchun avtomotik muftalar, sovitish tizi migaiqlik sezuvchan datchiklar o'rnatiladi. Ventilyator ishini tavsiflovchi bosim ko'rsatkichidir, ko'rsatkich bu oddiy aksial ventilyatorlarda 0,07 ni tashkil etadi.

Ventilyatorni unumdarligi hisobi radiatordan issiqlikni sovituvchi havo yordamida ketkazishni ta'minlash hisobiy formulasi bilan aniqlanadi.

$$Qj = q_{oxl} N_{en}, \text{ Dj/s.}$$

Ventilyator ta'minlaydigan havo sarfi xajmi.

$$V_v = \frac{Q_j}{\rho_v \cdot \Delta T_v \cdot c_v}, \quad (\frac{m^3}{c})$$

C_v – havoning issiqlik sig'imi, Dj/(kg·K); $C_v = 1000$ Dj/(kg·K);

ρ_v – radiatoring o'rtacha xaroratida havoning zichligi, kg/m³;

$\rho_v = 1,05 \dots 1,12$ kg/m³;

DT-radiator panjarasida havoning isish xarorati:

($DT_v = T_{v,vx.} - T_v$. $V_x.$); $DT_v. = 20 \dots 300$ S ;



Ventilyator yuritmasiga sarflanadigan quvvat:

$$N_v = \frac{V_v \cdot \Delta P}{\mu_v} , \quad (Vt)$$

μ_v – ventilyator FIK; $\mu_v = 0,32 \dots 0,4$ parchinlangan ventilyator uchun;

$\eta_v = 0,55 \dots 0,65$ quyma uchun;

Δr_v – havo trakti qarshiligi (aerodinamik yo'qotishlar);

$\Delta r_v = 600 \dots 1000 \text{ Pa}$.

Izoh: ventilyator avtonom ravishda ishlaydigan elektryuritmaga ega bo'lishi mumkin, va uning yuritmasi sovitish tizimiga o'rnatilgan issiqlik sezuvchi datchik yordamida ishga tushiriladi.


Suyuqlikli sovitish tizimi hisobi.

90 kVt nominal quvvatga ega bo'lgan benzin dvigateli sovitish tizimi uchun hisoblash olib boramiz.

Ushbu dvigatelsovutish tizimi - suyuqlikli, berk, sovituvchi suyuqlikni majburiy sirkulyatsiyasini ta'minlovchi.

Dvigatel ishslash jarayonida qizigan suyuqlik termostat orqali chiqarish patrubkasidan shlanglar yordamida radiatorga yetkaziladi. Termostat orqali o'tayotgan suyuqlikning xarorati 70°S dan past bo'lganda klapan berk turadi. Buning natijasida sovituvchi suyuqlik radiatorga o'tmaydi va tsilindarlar bloke sovitish ko'ylagi ichida aylanadi. Xarorat ortishi bilan klapan ochila boshlaydi vaqizigan sovituvchi suyuqlik seking'asta radiatorga o'tadi. Xarorat $80 \dots 85^{\circ}\text{S}$ ga yetganda klapan to'liq ochiladi va sovituvchi suyuqlik radiatorga to'la o'tishni boshlaydi. Keyin sovituvchi suyuqlik xaroroti 95°S ga yetganda ventilyator ishga tushadi, xamda qo'shimcha sun'iy havo oqimini hosil qilib radiator trubkalaridan atrof-muhitga issiqlik tarqalishini tezlashtiradi. Radiatorda sovitilgan suyuqlik nasos orqali so'rib olinib, sovitish ko'ylagiga yuboriladi.





1-rasm. Dvigatelning sovitish tizimi funksional sxemasi.

Sovitish tizimi quyidagilardan tashkil topgan:

1. Markazdan qochma sirkulyatsiya nasosi.
2. Radiator.
3. Kengayish idishi
4. Termostat .
5. Ventilyator.
6. Dvigatel sovitish ko'ylagi.

Radiator. Vaqt birligida dvigateldan sovitish tizimi yordamida ajratilayotgan issiqlik miqdori.

$$Q_j = \cdot q_{oxl} N_{en} = \cdot 3780 \cdot 90 = 94500 \text{ Dj/s.}$$

Bu yerda q_{oxl} – suvga nisbiy issiqlik uzatish koeffitsienti; $q_{oxl} = 3780 \text{ kDj/(kVt}\cdot\text{ch)}$;

$$N_{en} = 90 \text{ kVt} – dvigatelning nominal quvvati.}$$

Radiatorming sovitish yuzasi

$$F_p = \frac{Q_j}{k_p \cdot \Delta T_p} = \frac{94500}{100 \cdot 35} = 27 m^2$$

Bu yerda $k_r = 100 \text{ Vt/(m}^2\cdot\text{K)}$ – suyuqlikdan havoga issiqlik uzatish koeffitsienti;

$\Delta Tr = T_j - T_v$ $\Delta Tr = 35K$ – suyuqlik va havoning sovitish radiatordan o'tishdagi o'rtachaxarorati farqi.

Sirkulyatsiya nasosi.

Sirkulyatsiya nasosining hisobiy unumдорлиги.

$$V_{jr} = \frac{Q_j}{\mu_n \cdot C_j \cdot \rho_j \cdot \Delta T_j} = \frac{94500}{0.82 \cdot 3800 \cdot 1000 \cdot 9} = 0,0031 m^3/sek = 186 l/min,$$

(antifriz) $hn = 0,82$ – nasos uzatish koeffitsienti;

$\rho_j = 1000 kg/m^3$ – sovituvchi suyuqlik zichligi;

$DTj = Tj \text{ vх.} - Tj \text{ вых.} = 9K$ – radiatorda suyuqlikning xarorati o’zgarishi.

Sirkulyatsiya nasosiga sarflanadigan quvvati

$$N_n = \frac{V_j \cdot R_n}{\mu_g \cdot \mu_{mex}} = \frac{0,0031 \cdot 1 \cdot 100000}{0,7 \cdot 0,9} = 378vt = 0,378kvt$$

Bu yerda $Rn = 0,1 MPa = 1 \cdot 10^5 Pa$ – nasos xosil qiladigan bosim;

$\mu_g = 0,7$ - sirkulyatsiya nasosi gidravlik FIK;

$\mu_{mex} = 0,9$ - sirkulyatsiya nasosi mexanik FIK.

Shunday qilib, dvigatel sovitish tizimidagi sirkulyatsiya nasosi uchun sarflanadigan quvvat N_n dvigatel nominal Ne quvvatining 0,42% tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’XATI

1. A. Muhibdinov, B. Sotvoldiyev, E. Fayzullayev, SH. Hakimov. “Avtomobillar konstruksiyasi asoslari” o’quv qo’llanma Toshkent – 2015y 48bet
2. Q.H. Mahkamov, A. Ergashev. “Avtomobilarni ta ‘mirlash” darslik Toshkent - 2008y 304 bet.
3. Akilov A.A., Qahorov A.A., Sayidov M.X. Avtomobilning umumiy tuzilishi. Darslik. -Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi: 2012y. 142 bet.
4. Hamraulov, Magdiyev avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi. Darslik. - Toshkent. 2005y 223 bet.

INTERNET SAYTLARI

1. www.google.ru
2. www.ziyonet.uz
3. www.manytransport.ru
4. www.avtomotoprof.ru